

MINTAQA TURIZMNI INNOVATSION TIZIMINI OPTIMALLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBA VA ISTIQBOLLI YO'NALISHLAR

Xamrayev Nodir Zokir o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti katta o'qituvchi.

<https://orcid.org/0009-0005-3491-9714>

xamrayevnodir@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17374227>

Annatsiya. Ushbu maqolada turizmni rivojlantirishda innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalar tahlil qilingan va O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan jihatlar ko'rib chiqilgan. Xorijiy mamlakatlarni turizm sohasining rivojlanishi bo'yicha olib borgan davlatlarning innovatsion texnologiyalari va strategiyalaridan olingan tajribalar O'zbekiston turizm sohasiga qanday tatbiq etilishi mumkinligi batafsil o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Turizm sohasida innovatsiyalar, xorijiy tajriba, O'zbekistonda turizm, smart turizm texnologiyalari, ekoturizm, barqaror rivojlanish, madaniy meros, virtual reallik (VR), personalizatsiya, raqamli kommunikatsiya, marketing strategiyalari, turistik infratuzilma

Kirish. Jahon mamlakatlarini o'rganishlar natijasida turizm sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan va eng daromadli biznes turi bo'lib, uning "jahon yalpi ichki mahsuloti (yaim)dagi ulushi 10,0 foizni tashkil etadi. Shuningdek, yaratilayotgan innovatsiyalar natijasida yangi ish o'rinlarining ochilishi qolaversa har yettinchisi turizm sohasiga to'g'ri keladi" [1]. Butunjahon turizm tashkiloti (btt) prognozlariga ko'ra, 2024 yilda xalqaro turistlar soni 2,4 mlrd. kishini tashkil qiladi bu esa har davlatning turizm sohasidagi jozibadorligini oshirish davlat manfaatiga katta daromad olib keladi.

Iqtisodiyotning bu sohasida tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va yaqin yillar ichida u eng muhim sohaga aylanadi. O'rganishlamiz natijasi turizm sohasiga investitsiyalarning yillik o'sishi taxminan 30% ni tashkil qilashini ko'rishimiz mumkin. Xalqaro turizm aholi bandligini ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va chet el valyutasi kelishining faol manbai sifatida mamlakat tashqi savdo to'lov balansi, milliy iqtisodiyotgagina emas, ularning ijtimoiy, madaniy, ekologik muhitiga ham ta'sir etadi. Turizm sanoati dunyo iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatlar iqtisodiyoti, madaniy almashinuv va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion texnologiyalar va strategiyalar turizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

O'zbekistonda xizmatlar sohasini, xususan, turistik xizmatlar hajmini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Chunonchi, turistik xizmatlar sifatini oshirish maqsadida normativhuquqiy hujjatlar, standartlar va yangi talablar ishlab chiqildi, boshqaruv tuzilmalari takomillashtirildi. Milliy turizmning rivojlanishiga hamda xorijiy turistlar oqimini ko'paytirishga va turizm xizmatlari eksportini kengaytirishga, tarmoqda yangi ish o'rinlari yaratish asosida aholining bandlik darajasini oshirishga, mehmonxonalar, sayyohlarni joylashtirishning boshqa vositalari va turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar sonining ko'payishiga hamda ularda boshqaruvning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etishga katta ahamiyat berilmoqda. Binobarin, mamlakatimizda bu borada muayyan tadbirlar belgilanib, ularning ijrosini ta'minlash sa'y-harakatlari tobora kuchaytirilmoqda.

Yangi O'zbekistonni iqtisodiy rivojlantirishda turizm sohasiga katta etibor berilmoqda 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 35-maqsadida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12

million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish vazifalar quyilgan Turizm sanoatining innovatsion rivojlanishida xorij tajribasiga tayanadigan bo'lsak, bugungi kunda quyidagi tarmoqlarning rivoji turizmning jadal o'sishiga katta xissa qo'shmoqda.

O'zbekistonda xizmatlar sohasini, xususan, turistik xizmatlar hajmini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Chunonchi, turistik xizmatlar sifatini oshirish maqsadida normativhuquqiy hujjatlar, standartlar va yangi talablar ishlab chiqildi, boshqaruv tuzilmalari takomillashtirildi. Milliy turizmning rivojlanishiga hamda xorijiy turistlar oqimini ko'paytirishga va turizm xizmatlari eksportini kengaytirishga, tarmoqda yangi ish o'rinlari yaratish asosida aholining bandlik darajasini oshirishga, mehmonxonalar, sayyohlarni joylashtirishning boshqa vositalari va turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar sonining ko'payishiga hamda ularda boshqaruvning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etishga katta ahamiyat berilmoqda. Binobarin, mamlakatimizda bu borada muayyan tadbirlar belgilanib, ularning ijrosini ta'minlash sa'y-harakatlari tobora kuchaytirilmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida turizm iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, dunyo mamlakatlari ijtimoiy iqtisodiy farovonligini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Turizm turar joy va transportdan tortib oziq-ovqat, chakana savdo, madaniyat, sport va dam olishgacha bo'lgan sohalaridagi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishga, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga va dunyo bo'ylab an'anaga aylangan bayramlarini nishonlashga xizmat qiladi.

Turizm ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy o'sish, bandlik va valyuta tushumlarining asosiy omili hisoblanadi. Turizmning Yalpi ichki mahsulotga (YaIM) qo'shgan hissasi jahon iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi, chunki u turli mamlakatlarda turizm sanoatining iqtisodiy ta'sirini aks ettiradi.

Butunjahon turistik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 2023 yilda turizm sektorining jahon yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) ulushi taxminan 9,1% ni tashkil etdi, bu 9,5 trillion AQSh dollariga teng bo'ldi. Shuningdek, umumiy eksportning 1.6 trillion AQSH dollari ya'ni 6.8 foiziga (bu umumiy xizmatlar eksportining 29% foizi demakdir) va 334 million ish o'rni (har 10 tadan 1 kishi turizm sohasida ishlaydi) ga teng bo'ldi. So'nggi besh yil ichida barcha global ish o'rinlarining 5 tadan bittasi aynan turizm sohasida yaratilgan. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, keyingi 10 yil ichida dunyo bo'yicha turizm sohasida 100 million qo'shimcha ish joylari yaratilishi kutilmoqda. Bu keyingi o'n yillikda har to'rtta yangi ish joyidan bittasi turizm sektori tomonidan yaratilishini anglatadi. Turizm sohasidagi ishlar ayniqsa ayollar, yoshlar va boshqa jamiyatning cheklangan qatlamlari bandligini oshirishga xizmat qiladi. Turizm iqtisodiyoti uchun juda muhim bo'lgan mamlakatlarda ish o'rinlarini yaratishda asosiy manba sifatida qaralmoqda. Gretsiyada yaratilgan barcha yangi ish o'rinlarining 71 foizi, Portugaliyada 60 foizi va BAAda 47 foizi manashu sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu statistika turizm sektorining ushbu davlatlarda iqtisodiy va ish bilan ta'minlashdagi o'rni qanchalik katta ekanini anglatadi.¹

2023 yilda xalqaro turistlar soni 1,4 mlrdga teng bo'ldi va bu ko'rsatkich 2027 yilga kelib 2 mlr kishidan ortiq bo'lishi kutilmoqda [Travel & Tourism Economic Impact 2023 Uzbekistan]. Jahon turistik bozorida rivojlangan mamlakatlar turistlarining ulushi katta hisoblanadi. Chunki

¹ <https://wttc.org/news-article/global-travel-and-tourism-catapults-into-2023-says-wttc>

turizm avvalo yuqori daromadga bog'liq bo'lib, turmush darajasi rivojlangan mamlakatlar aholisi ko'proq sayohat qilishni avzal ko'rishadi. Bu o'z navbatida mamlakatda chet elga sayohatlarini ya'ni chiqish turizmini rivojlantiradi.

Dunyoda ko'pgina mamlakatlar turistik xizmatlar eksport qilish orqali katta iqtisodiy o'sish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu o'z navbatida turizm sektori bo'yicha xalqaro darajadagi raqobatni shakillantirmoqda (1-jadval). Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar haqidagi aniq ma'lumotlarni olish qiyin, chunki bu ko'rsatkichlar mamlakatdan mamlakatga va yil davomida o'zgarib turadi. Biroq, umumiy tahlillar va mavjud ma'lumotlarga asoslanib, ba'zi taxminlarni keltirish mumkin[4].

Turizmning iqtisodiyotdagi ulushi, mintaqalar bo'yicha²

1-jadval

Mintaqalar	Turizmning YaIM dagi ulushi, trillion doll. AQSh	Turizm sektorida band bo'lgan axoli, mln. Kishi	2023 yilda o'tgan yilga nisbatan turizmning YaIM dagi ulishining o'sishi, foizda
AQSh	1,27	17,4	3
Osiyo-Tinch Okeani	2,6	17	15
Afrika	0,2	24,7	6
Yevropa	2,5	36,7	13,6
Yaqin Sharq	0,4	3	9

Turistlarni eng ko'p qabul qiluvchi mintaqalar Yevropa va Osiyo-Tinch okeani hisoblanadi. Biroq Yevropa va Amerika mamlakatlari turistlik faoliyat birmuncha serdaromadli bo'lib, bu hududga tashrif buyuruvchi turistlardan olinadigan o'rtacha daromad ancha yuqori hisoblanadi. Mintaqalarda turistlik bozorlarning rivojlanish darajasi turlicha bo'lib, turistlar tashrifi hamda ulardan olinadigan daromadlar ham notekis taqsimlangan³.

Turizm YaIM ga qo'shayotgan hissasi bo'yicha dunyoning eng tez rivojlanayotgan davlatlari orasida rivojlanayotgan davlatlar ustunlik qiladi. Bu sektorning yana bir o'ziga hos jihati shundaki, daromadlarni butun dunyo bo'ylab qayta taqsimlash imkoniyatini beradi. Shu boisdan O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish uchun alohida e'tibor qaratilib, qator islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlar o'zbek turizmining rivojlanishida eng muhim qadamlardan bo'lmoqda.

Turizm sohasini innovatsion rivojlantirishda xorij tajribasini o'rganish va moslashtirish O'zbekiston uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Smart texnologiyalar, ekoturizm, madaniy merosning virtual reallik orqali targ'ib qilinishi, personalizatsiya va xizmat sifati, marketing va

² Travel & Tourism Economic Impact 2023

³ Jahon Sayyohlik Tashkiloti (UNWTO). <https://www.unwto.org>

raqamli kommunikatsiya sohalarida xorij tajribasini tatbiq etish orqali mamlakatimiz turizm sohasini yangi bosqichga ko'tarish mumkin. Buning uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va malakali kadrlarni tayyorlash muhimdir.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish uchun alohida e'tibor qaratilib, qator islohotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, qulay turizm muhitini yaratish, transport logistikasini rivojlantirish va xizmat sifatini oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, turizm sohasidagi innovatsiyalar bu sayyohlar tajribasini yaxshilash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga yordam beradi. Xorijiy tajribalardan foydalanish O'zbekistonning turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va madaniy merosni saqlashda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <http://vawilon.ru/statistika-v-turizme/> ma'lumotlari asosida
2. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni. //O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida" qonunning yangi tahriri.
<https://lex.uz/docs/-4428097>
5. A. Isadjanov and I. Gulmurotov (2020) "Tourism development in uzbekistan: current trends and national priorities," The Light of Islam: Vol. : Iss. 1 , Article 27.
6. Hall, C. M., & Williams, A. M. (2008). "Tourism and Innovation.
7. Elisa Giaccardi(2012). "Heritage and Social Media: Understanding Heritage in a Participatory Culture".272p.
8. Mok C., Sparks B., & Kadampully J. (2001). Service Quality Management in Hospitality, Tourism, and Leisure (1st ed.). Routle
9. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(6), 245-250.
10. Makhmanazarovna, R. M. (2021). The importance of a synergy approach to teaching an econometrics in the direction of the economy. In international conference on multidisciplinary research and innovative technologies (Vol. 2, pp. 5-7)